

Xonqa tuman Axborot kutubxona markazi

Axborot -bibliografiya xizmati



Yangi hayot uchun, yangi O`zbekiston uchun !

**(O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligiga
bag`ishlab)**

Uslubiy qo`llanma

**XORAZM VILOYATI XONQA TUMANI
AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI**

**YANGI HAYOT UCHUN, YANGI
O`ZBEKISTON UCHUN !**

O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligiga bag`ishlab

Axborot-kutubxona markazi foydalanuvchilari uchun uslubiy qo`llanma

Xonqa tumani - 2024

YŷK _____

KBK _____

J _____

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O`ZBEKISTON UCHUN !
O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligiga bag`ishlab [Matn] :
Axborot-kutubxona markazi foydalanuvchilari uchun uslubiy qo`llanma /
Tuzuvchi: D.Jumaniyazova, D.Olloquliyev; Muharrir D.Jumaniyozova. -
Xonqa tumani axborot-kutubxona markazi. Axborot-biblografiya xizmati,
2024. – 40 bet.

Muqaddima

Inson baxtli bulishi uchun erkin bulishi, erkin bulishi uchun mustaqil bo'lishi kerak ekan, demak, eng avvalo, mustaqillikni mazmun-moxiyatini anglab olish kerak. Mustaqillikni mohiyati inson o'z taqdiriga o'zi egalik qilish huquqi ekanligini anglab olish va uni yanada mustaxkamlashga intilish kerakligini tushinish lozim. Shuning uchun muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarini chikishlaridan birida «Mustaqillik bu huquq» deb ta'kidlagan edilar. Qachon xar bir inson ana shu oddiy xaqiqatni tushinib yetsa, ya'ni bu g'oya odamlar qalbidan joy olsa, ana shunda u millatni jipslashtiradigan va taraqqiyot sari yetaklaydigan milliy g'oyaga aylanadi. Demak, milliy g'oya-mustaqillikni anglash, baxolash va uni mustaxkamlashga undovchi qarashlarni anglatadi.

1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston davlat mustaqilligi e'lon qilingach, o'zbek millatining qaddi tiklandi. Vatan qadri ortdi, zo'ravonlik yo'li bilan yo'q qilingan milliy qadriyatlarimiz, dinimiz, («Navro'z» bayrami, Ramazon hamda Qurbon haytlari) yana xalqqa qaytarildi.

Insondagi eng oliy tuyg'u — Vatan tuyg'usidir. O'zi tug'ilib-o'sgan ona yurtini jon qadar sevadigan, o'zga yurt tabiatidan o'z yurti tabiatichalik zavq ololmaydigan, diyoridagi katta-kichik yutuqlardan fahrlanadigan, hatto mitti chumoli harakatidan zavqlanadigan butun aql-zakovati, qalb qo'ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat va tabiat go'zalligi, rivojiga baxshida eta olgan insondagina bu tuyg'u namoyon bo'ladi.

Vatan ham, Vatanga muhabbat tuyg'usi ham iloxiy ne'mat bo'lib, butun qon tomirlarida shu tuyg'u jo'sh urgan insonda vatanfurushlik vatanga xiyonatdek jirkanch voxshiylikka moyillik hech qachon bo'lmaydi. Shoir «O'zga yurtning bog'lari-yu bog'chasi, o'z yurtining yantog'icha ko'rinmas» deb bejiz aytmagai.

Yangi davlat ramzlari - davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi, milliy valyutasiga ega bo'ldi. Mazmun va mohiyatan tamomila yangi davlatimizning Asosiy Qonuni – Konstitutsiyamiz qabul qilindi. O'zbek xalqi o'z tilida baralla so'zlash, asrlar davomida shakllanib kelgan an'analari, qadriyatlarini qaytadan bilish, e'zozlash, erkin Mustaqillikni muxim axamiyatlaridan biri bu biz o'z tariximizni ob'ektiv o'rganish huquqiga ega bo'lganligimizdir. Mustaqillikka qadar biz asosan sovetlar zamonasidagi tariximizni o'rganar edik. Undan oldingi tariximiz deyarli o'rganilmasdi, o'rganilganda xam bir yoqlama faqat salbiy tomondan o'rganilar edi.

Mustaqillik sharofati bilan biz o'z tariximizni ob'ektiv o'rganib bu yorug' olamda kim ekanligimizni, kimlarni davomchilari ekanligimizni anglay boshladik. O'z tariximizni o'rganish xalqimizni bilim va ma'naviyatini yuksalishida muxim ahamiyatga ega bulmokda. Chunki bilim va ma'naviyat fakat tarixiy bilim negizidagina shakllanishi mumkin. Tarixni bilmagan odam umuman savodli va ma'lumotli bula olmaydi. Barcha ijtimoiy fanlar fakat tarix fani negizida rivojlanishi mumkin. Endi mustakillik sharofati bilan tarixiy bilim negizida Xorazmiy, Beruniy va Ibn Sinolarni davomchilarini tarbiyalash imkoniyati paydo buldi. Shu vaqtgacha bizlardan kuchli olimu-ulamolarni yetishib chiqmaganligini sabablaridan biri erkin fikrlash imkoniyatiga ega bo'lmaganligimiz bulsa, ikkinchisi, o'z tariximizni ob'ektiv bilmaganligimiz ya'ni tarixiy bilimni pastligi va soxtaligi edi.

Mamlakatimiz xalqlari tarixida mustaqillikni quldan ketganiga mugullar istibdodi va Rossiya koloniyasi davri yaqqol misol bula oladi. Xar ikkala xolatda xam mustaqillikni ko'ldan ketishiga sabab adolatsizlik natijasida kelib chiqqan siyosiy beqarorlik va parokandalik bo'lgan. Chunki adolatsizlik bo'lgan joyda huquq va axloq normalariga rioya qilish ta'minlanmagan buladi. Huquq va axloq ishlamagan joyda ijtimoiy tartibsizlik kelib chiqadi va bu jamiyat oxir oqibatda parokanda bo'lib o'z mustaqilligini yuqotadi. Odamzod xar qanday qiyinchilikka chidashi mumkin, lekin, adolatsizlikka nisbatan befarq bulaolmaydi. Adolatsizlik bo'lgan joyda odamlarda davlatga nisbatan ishonchsizlik va norozilik kelib chiqadi va bunda xech bir g'oya jamiyatni jipslashtirib taraqqiyot sari yetaklay olmaydi va oxir oqibatda barbod bo'ladi, mustamlakaga aylanadi. Mustaqillikni yana qayta qo'lga kiritish mashaqqatli uzoq tarixiy jarayonni toqozo qiladi.

Mamlakatimiz istiqloлга erishgach, Vatan tushunchasi o'zgacha mazmun kasb etdi. Kommunistik mafkura hukmron bo'lgan davlatda bu ulug' tuyg'u betayin mazmun va shaklga ega bo'lib, xalq ongiga mantiqsiz qarash singdirilgan edi. Tug'ilib-o'sgan yer uchun, millat uchun, o'z milliy qadriyatlari gullab-yashnashi uchun fidoiy vatannparvar kishi "millatchi" sifatida qoralanar yoki qatag'on qilinardi. Tariximizga bir nazar tashlasak, o'tgan asrning saksoninchi yillardagi "Paxta ishi" shiori ostida turli vahshiyliklar bilan millatimizning asl farzandlari qamoqqa olindi. Xalqimizni tili, dini, madaniyati, urf-odatlar, an'analaridan mosuvo qilishga harakatlar bo'ldi. Lekin haqiqiy millatparvar, vatanparvar insonlar qanday sharoit, vaziyat bo'lishidan qat'iy nazar, asrlar davomida shakllanib kelgan qadriyatlardan yuz o'girmadilar, ularning avloddan-avlodga o'tib borishi, umrboqiyiligini ta'minlash uchun kurashdilar.

Vatanimiz hududiga rivojlangan mamlakatlarning nufuzli korxona va tashkilotlari o'z texnika va texnologiyasi, mahsulotlari bilan kirib kela boshladi. Oz fursat ichida yirik-yirik O'zbekiston-xorijiy mamlakatlar qo'shma korxonalari tashkil etildi va ishga tushirildi. Tarixan qisqa bir davrda vatanimiz dunyoga tanila boshladi. Axir bu yutuqlar bilan quvonmay bo'ladimi? Ayniqsa, bugun – Istiqlolning 25 yillik tantanasi arafasida ne-ne mashaqqatlarni ortda qoldirib, o'zbek degan nomni oqlab kelayotgan yurtdoshlarimiz mehnatini har qancha ko'klarga ko'tarsak.

“Mustaqillik kuni” umumxalq bayramiga bag'ishlab o'tkaziladigan quyidagi ommaviy tadbirlar mavzusini tavsiya qilamiz

Adabiy-musiqali kechalar :

1. “Mehrning bilan yashaymiz, Vatan !”
2. “Gulla, yashna hur O'zbekiston !”
3. Fidoying bo'lgaymiz seni O'zbekiston !

Kitob ko'rgazmalari :

1. Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun !
2. O'zbekiston - vatanim manim !
3. Mustaqillik - oliy ne'mat !

Davra suhbatlari :

1. Men nechun sevaman O'zbekistonni !
2. Vatan muqaddas dargoh !
3. Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin !

1 sentabr – “Mustaqillik kuni” umumxalq bayrami

“Mehrining bilan yashaymiz, Vatan”

(Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun musiqiy bayram ssenariysi)

Tadbir ochiq maydonda, yoki zalda o'tkazilishiga mo'ljallangan.

Rang-barang bayroqchalar, lentalar, gullar va turli hil sharlar bilan bezatilgan maydon yoki zalda “Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan”, “Yurtim senga jonim fido”, “Vatan uchun yashaylik”, “Bu yorug' olamda Vatan bittadir” singari shiorlar ilingan. Sahnada odatdagiday ikki boshlovchi (bir qiz va bir o'g'il bola) kirib kelishadi.

Mo'tabar ustozlar! Qadrli bolajonlar istiqloq farzandlari!

2-boshlovchi(qo'lini ko'ksiga qo'yib): Barcha barchangiz tadbirimizga xush kelibsiz!

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 23 yilligiga bag'ishlangan “Mehrining bilan yashaymiz, Vatan” deb nomlangan tantanali bayram kechamizni ochiq deb e'lon qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi yangraydi. Barcha qatnashchilar o'rnilaridan turib jo'rlikda, qo'llari ko'ksilarida madhiyani ijro etadilar. Madhiya tugagandan so'ng jo'shqin musiqa sadolari ostida qorong'ulik qaridan bir qiz xumo kushi bo'lib uchib chiqadi. Uning ortidan: “Xumo qushi keldi, xumo qushi keldi” deb shovqin suron bilan bir to'p o'g'il qizlar kirib kelishadi. Xumo qushi sahna o'rtasida to'xtaydi. Bolalar yoy shaklida sahnada tizilishib turadilar.

Xumo qushi: Qadrli bolalar Mustaqil O'zbekistonning baxtli farzandlari! Hurmatli tadbir ishtirokchilari! Hammalaringizni eng ulug' va eng aziz bayramimiz – Mustaqilligimizning 23 yilligi bilan tabriklayman. O'tgan 23 yil O'zbekiston tarixida misli ko'rilmagan yangilanishlar va o'zgarishlar davri bo'ldi. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida erishilayotgan ulkan natijalar mahtaram Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida tanlangan mustaqil taraqqiyot yo'lining to'g'ri ekanligini ko'rsatmoqda. Yurtimizda tinchlik va barqarorlik, izchil iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini faol himoya qilish, aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish kabi yo'nalishlar suveren davlatimizning adolatli va insonparvar ichki siyosatida doimiy ustuvor bo'lib kelmoqda

1-o'quvchi:

Xumo qushi- baxt qushi,
Bobom, momom xoxishi
Qo'nding xalqim boshiga
Mamnun shodon har kishi.

2-o'quvchi:

Kulib boqdi istiqlol,
Kutar porloq istiqbol.
Qanotlaring tillomi?
Keltirding mangu iqbol.

3-o'quvchi:

Boshda xumo qushimiz,
Izga qaytdi xushimiz.
Tenglar ichra teng bo'ldik.
Ko'zda sevinch yoshimiz.

4-o'quvchi:

Mustaqillik orzumiz,
Qismatdan xo'p rozimiz.
Bek yurtning beklarimiz,
Yayrasin kuy sozimiz.

So'ng Mustaqil O'zbekiston haqida qo'shiq va xumo kushi ishtirokida ommaviy raqs ijro etiladi. Saxnaga boshlovchilar chiqadi.

1-boshlovchi: Barchangizga ma'lumki, Mustaqillik xalqimizning orzusi edi. Nihoyat, 1991 yil 31 avgust kuni Toshkentda Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida Respublika davlat mustaqilligi haqida bayonot qabul qilindi

2-boshlovchi: 1 sentyabr - O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni deb e‘lon qilindi. Ushbu navbatdan tashqari sessiyada “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

1-boshlovchi:O‘zbekiston, onajon yurtim! O‘zbekiston – qadim Turkiston! Tuprog‘ingning har gardida ulug‘lik bor, salobat bor. Sening har bir toshu giyoxingda, qadim obidalarining har bir naqshida ne-ne tarixlar bitilgan.

2-boshlovchi:Ne-ne farzandlaring senga jonini fido qilmagan! Ne-ne olam fotixlari qilich ko‘tarib kelib tuprog‘ingdan mag‘lub bo‘lib ketmagan...

Shu yerda o‘g‘il bolalar ijrosida harbiy mashqlar bajariladi.

1-boshlovchi:Vatanim, dunyo senga tig‘ o‘qtalib kelganda, sen dunyoga ilmu-ma‘rifat nurini taratding. Farzandlaring Al-Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur... ularning qay birini aytay.

2-boshlovchi: Islom olamida shu zaminda tug‘ilib kamolga yetgan bobokalonlarimizni Al-Termiziy, Al-Buxoriy, Al-Zamashxariy, Xo‘ja Axmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Marg‘iloniy singari daholarni bergan yurtini dunyoning yana qaysi burchagida uchratish mumkin.

1-Boshlovchi:Shunisi e‘tiborga sazovorki istiqlol yillarida umumxalq bayrami maqomini olgan “Mustaqillik kuni” bugun O‘zbekistonning har bir hududi, shahar, qishloq va ovullarida, har bir xonadonda katta tayyorgarlik va ko‘tarinkilik bilan bayram qilinmoqda. Dillardagi quvonch va shukrona, duoga she‘ru g‘azalga, kuy va qo‘shiqlarga aylanmoqda.

Sahnaga o‘quvchilar chiqib buyuk ajdodlarimiz haqida she‘rlar o‘qishadi.

1-o‘quvchi: Bobolarim bor mening,
Nomi dunyoga mashxur.
Ibn Sino, Ulug‘bek,
Temur, Navoiy, Bobur.

2-o‘quvchi: Yurtni sevmog‘ bizlarga
Payg‘ambardan merosdir.
Jo‘mardlik, bag‘ri kenglik-
O‘zbek eliga xosdir.

3-o‘quvchi: Samarqand osmonida porlagan yulduz,
Temuriy qavmida chatishgan ildiz.
Yulduzingiz yorug‘ so‘nmagay har giz
Temuriylar nasli bobom Ulug‘bek .

4-o‘quvchi: She‘riyat qasrining buyuk sultoni
Besh panjasin yozib ingrar mag‘rur she‘r
Tarifinga sig‘mas g‘azal, dostoni,
Erksevar, xalqparvar bobom Alisher.

1-Boshlovchi:Mustaqillik tufayli yerlarimiz o‘z sohibini, chinakam egasini topdi. Xalqimiz orasida minglab tadbirkorlar, fermerlar, mulkdorlar yetishib chiqdi.

2-boshlovchi:

O‘zligim qaytdi, o‘zimga, o‘zingdan o‘rgilay, mustaqqillik,
Beminnat nonim-nasibam, tuzingdan o‘rgilay, mustaqillik.
Yuz tutda yurtim jaxonga, ko‘z ochdi yuz yillik orzularim,
Ozodlik xurlik atalgan so‘zingdan o‘rgilay, mustaqillik.

O‘quvchilar shoir Jumaniyoz Jabborovning “Istiqlol”nomli she‘rini o‘qishadi.

1-o‘quvchi: Mustaqillik ne demak,
Ne demakdir istiqlol?
Buni bilmog‘ing kerak,
Ma’nosini dilga sol.

2-o‘quvchi: O‘z yurtning – yer, samosi.
Shahri gulshan ma’vosi.
Tongda esgan sabosi,
Tog‘i, bog‘i, daryosi
Endi o‘z molu mulkining,
O‘z qo‘lingda o‘z erkining.

3-o‘quvchi: Yurting nurga belanib,
Ko‘rinmaydir ko‘zinga,
Barcha oltin-gavxaring,
Buyursin-a o‘zinga.

4-o‘quvchi: Endi o‘zingga bog‘liq,
Ne ekib ne o‘rmog‘ing.
Olqishlar seni borliq,
Zarur erur bilmog‘ing.

5-o‘quvchi: G‘ururing solib dilga,
Tezroq ulg‘ay top kamol.
Erka farzandsan elga
Senikidir istiqlol.

1-boshlovchi: Aziz bolajonlar! Istiqlol sizni bizdan fidoiylilikni, vatanparvarlikni talab etadi. Bugun o‘zini shu aziz yurtning farzandi deb bilgan har bir o‘g‘il qiz qalbida Vatanimizga yuksak muhabbat, chuqur ehtirom mujassam. Yuraklari g‘urur va iftihorga to‘la tengdoshlarimiz qalblarida kelajakka ishonch, yurtga saodat tuyg‘ulari jo‘sh urmoqda.

2-boshlovchi: Mustaqil davlatimizda bizlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ulardan unumli foydalanaylik. Xalqimizga xizmat qilib, Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrash, Milliy qadriyat va an‘analarimizni hurmat qilish, ularga sadoqatli bo‘lish har birimizning qalbimizdan chuqur joy olsun. Zero, Vatanimiz kelajagi sizning, bizning qo‘limizda.

1-boshlovchi: Shuning bilan O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligining 23 yilligiga bag‘ishlangan “Mustaqillik –buyuk ne‘mat” deb nomlangan tadbirimiz nihoyasiga yetdi.

2-boshlovchi: Tadbirimizda ishtirok etganingiz uchun rahmat. Yana bir bor barchalaringizga mustaqillik bayrami muborak bo'lsin!

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan

“Gulla, yashna hur O'zbekiston” mavzusidagi tadbir

Ssenariysi

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlangan **“Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik”** ezgu shiori orqa fonga ilingan. Bayram o'tkaziladigan joy shar va bayroqlar bilan chiroyli qilib bezatiladi. Tadbirga tumandagi barcha maktab targ'ibotchilari, ijodkor yoshlar, hamda faol yoshlar taklif qilinadi.

Bayram tadbirini boshqarish uchun davraga boshlovchi chiqib keladi.

Boshlovchi:

Qadim-qadimlardan tinmas dostonim,

Haqdan nazar tushgan go'zal bo'stonim

Jaloladdin yurti, nurli makonim

Assalom ona yurt, O'zbekistonim.

Boshlovchi:

Tanti el ko'rmagan, seningdek xalqim

Toza dil ko'rmadim, seningdek xalqim

Assalom ona yurt, O'zbekistonim

Boshlovchi: Shu kunlarda jonajon yurtimizda ulug' sana nishonlanmoqda.

Boshlovchi: Bu xalqimiz va davlatimiz tarixida abadiy qoladigan, kelajak avlod faxr bilan eslab yuradigan mustaqillik tantanasidir!

Boshlovchi: Milliy mustaqilligimizning qo'lga kiritilishi katta yutuq. Uning qadriga yetish, mustahkamlash va asrab-avaylash eng sharaflı burchimiz!

Abdulla Oripov so‘zi, M.Burxanov musiqasi bilan

O‘zbekiston Madxiyasi ijro etiladi.

Boshlovchi: Assalomu -alaykum aziz hamyurtdoshlar! Assalomu -alaykum Hurmatli mehmonlar, bugungi “**Gulla, yashna hur O‘zbekiston**” tadbirimizga

Xush kelibsizlar.

“Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun !” ezgu g‘oyasi asosida o‘tkazilayotgan tadbirimizda xush ko‘rdik, azizlar! Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan tub islohatlar zamirida xalqni rozi qilish, odamlarning tinch faravon hayotini ta‘minlash, yoshlarning kasb-xunarli, ilimli bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit yaratishdek olijanob maqsad mavjud.

Boshlovchi: 1-Sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni. Jonajon O‘zbekistonimiz, jonajon mamlaktimiz istiqloлга erishgan, jahon xaritasida yangi, mustaqil va suveren davlat-O‘zbekiston respublikasi paydo bo‘lgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlari ro‘yobga chiqqan buyuk tarixiy sana bo‘lib, el-yurtimiz tomonidan eng ulug‘, eng aziz bayram sifatida doimo katta shodu xurramlik bilan nishonlanib kelinmoqda.

Aziz do‘stlar, tadbirimizni ochib berish uchun hamda tabrik uchun so‘zni Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Xonqa tuman o‘limi rahbari Temur Abdullaev hamda Milliy tiklanish partiyasi Xonqa tuman bo‘limi rahbari Anagul Bekchonovaga beramiz. Marhamat.

Boshlovchi: Raxmat katta! Mustaqillik bayrami Sizga ham muborak bo‘lsin! Mustaqillik albatta barcha sohalar qatori Madaniyat va san‘at sohasida ham juda katta yangilanishlar va e‘tiborga loyiq yutuqlardan quvonyapmiz.

Olloxning nazari tushgan diyorim,
Sen mening faxrimsan, nomusim ,orim.
O‘zing borlig‘imsan, o‘zingsan borim.
Mening jannatimsan, xur gulistonim.
Istiqloling porloq, O‘zbekiston!

Vatanim o‘zingsan g‘ururim, baxtim.
Sen mening gavxarim, sen mening taxtim.
Bag‘ringda bir umr yashashdir axdim.
Mening jannatimsan, xur gulistonim,
Istiqloling porloq, O‘zbekistonim!

Boshlovchi: Sahnamizga mustaqilligimizni madh etuvchi she‘r hamda qo‘shiqlar ijrosi uchun 2-son va 41-son maktab o‘quvchilarini taklif qilamiz.

Boshlovchi: Raxmat. Mustaqillik bayrami muborak bo‘lsin.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridanoq ertangi kunimiz egalari bo‘lgan yosh avlodni jismoniy va ma‘naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash masalasiga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda.

Boshlovchi: O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 32 yillik mustaqil taraqqiyot davrida jonajon O‘zbekistonimiz tanib bo‘lmas darajada o‘zgarishlar bo‘ldi. Har bir shahar va qishloqda qad rostlayotgan yangidan-yangi inshootlar ona Vatanimizning qudrati haqida guvohlik berib turgandek.

(Xonqa tumanida 32 yil davomida bunyod etilgan yangi inshootlar videorolik namoyish etiladi.)

Boshlovchi: Bugungi pandemiya sharoitida aholi, ayniqsa yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularning iqtidorini rivojlantirish va rag‘batlantirishga doir ishlar olib borilmoqda.

Bugungi tadbirimizda “Barkamol avlod” bolalar maktabining rassomchilik va sport yo‘nalishi o‘quvchilari o‘z ijod na‘munalari bilan ishtirok etishmoqda.

Boshlovchi: Sahnamizga o‘zining musiqiy chiqishlarini namoyish etishlari uchun Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini taklif etamiz.

Boshlovchi:

Men uchun nimadan boshlanar Vatan,
Munosib bir javob izladim bu kun
Olis ajdodlardan meros bu gulshan
Bamisli jannatday har neday ustun!

Boshlovchi: Vatan-bu qanday sehrli maskanki, uni deb xalqlar qo‘liga qurol oladi, uning qanday jazibasi borki, egalari begonalarga bergisi kelmaydi.

Buyuk ajdodlarimizning yurt ozodligi uchun olib borgan kurashlari bizni imonli, e‘tiqotli bo‘lishga undaydi.

Boshlovchi: Sahnamizga mustaqilligimizni madh etish uchun o‘quvchilarimizni taklif etamiz. Marhamat !

Boshlovchi: Katta rahmat !

O‘ziga bek, o‘zligi erk millatim

Yomonlarga eshigi berk millatim

Mehri sochiq, qo‘li ochiq, bag‘ri keng

Yuzdan ortiq millat deydi “Elatim”

O‘zbekiston davlatida 130 dan ortiq millat va elatlar bir jonu bir tan bo‘lib yashamoqda. Shunday ahillik barqaror bo‘lsa, o‘zbek halqini hech kim, hech qachon yenga olmaydi!

Boshlovchi: Sahnamizga musiqiy chiqish uchun madaniyat markazi mutaxassislarini taklif etamiz. Marhamat !

Boshlovchi: Katta rahmat !

Ona allasidan boshlanar, Vatan.

Do‘stlar yallasidan boshlanar Vatan

Do‘stlar barallasi jo‘shqin sadodir,

O‘zbek eli uchun jonim fidodur.

Sahnamizga _____-son maktab o‘quvchilarini taklif etamiz. Marhamat !

Boshlovchi: JONIM IChRA JONIMDURSAN

Bu dunyoda jannatmonand yerlar bisyor,

Bu dunyoda oqu qaro ellar bisyor,
Ammo yo‘qdir bu dunyoda sendek diyor,
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.

Tuproq‘ingda ajdodlarim izi qolgan,
Bobolarim terlarining tuzi qolgan,
Har gardida momolarim ko‘zi qolgan
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.

O‘zbek elim, nuri diydami, qarog‘imsan,
O‘zbek elim, osmonimu tuprog‘imsan,
Ham quvonchim, ham baxtimu firog‘imsan,
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.

Beshigingda allalading dunyolarni,
Dunyo ochgan necha–necha daholarni,
Bolam deding yuraklari adolarni,
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.

Sohibqiron qo‘llarida qalqon bo‘lding,
Ulug‘bekning nigohida osmon bo‘lding,
Mirzo Bobur yuragida armon bo‘lding,
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.

Qo‘li qadoq dehqon elim, sulton elim,
Ko‘ksi yurtga doim balogardon elim,
O‘z yurtiga sohibqiron hoqon elim,
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.

Boshlovchi: O‘z yurtida ozod va erkin hayot, adolatli jamiyat barpo etishdek ulkan maqsadni o‘z oldiga qo‘ygan har qanday xalq, har qanday millat og‘ir, mashaqqatli va murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi. Kelajaka katta umid va ishonch bilan qarab, hamisha sabr-matонат bilan yashagan o‘zbek xalqi muqaddas orzuga erishdi-jonajon Vatanimiz o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Barcha taqdirlangan insonlarni O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yillik muborak to‘yi bilan muborakbod qilaman. Oila a‘zolaringizga o‘zingizga sog‘lik- salomatlik tilayman. Barchangizga mustaqillik muborak bo‘lsin.

Vatan va vatanparvarlik haqida

Cho‘lda o‘rmlab yurgan jonivorlar ham tug‘ilshidanoq o‘z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o‘z oshyonlarini his qiladilar, hatto bolari va shunga o‘xshashlar ham o‘z uyalarini muhofaza qiladilar,— shuning kabi odamlar ham qaerda tug‘ilib parvarish topsalar,— o‘sha joyga cheksiz mehr qo‘ygan bo‘ladilar.
F. SKORINA

Vatanparvarlik — yolgiz o‘z vataniga mehr qo‘yishdan iboratgina emas. Bu juda katta his... Bu — vatan bilan o‘zini bir butun deb bilish, uning yaxshiyomon kunlarida asqatish demakdir.
A. N. TOLSTOY

Kim xalq bilan uning qayg‘usini bab-baravar bo‘lishib olmasa, uning shodlpk bayramida o‘zini xo‘rlangan his etishi shubhasizdir.
L. M. LEONOV

Kimki umumiy falokat daqiqalarida vatan xaloskorligidan boshqa biron-bir xayolga borsam, — ozod davlatda yashagaga haqlga emas.
F. KLINGER

Inson hammadan avval o‘z mamlakatining farzandi, vatan manfaatlarini diliga jo qilgan grajdanindir.

V. G. VELINSKIY

Saxovatning eng buyuk jasurliklari vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan.

J.J. RUSSO

Vatanparvar — o‘z vatani kamoloti yo‘lida, o‘z xalqiga muhabbati tufayli ezguliklari tugul, jonini ham ayamaydigan insondir, xalqqa va vatani ozodligi, farovonligi uchun o‘zini qurbon qiluvchi insondir.

M. OXUNDOV

Vatanparvarlikning tarbiyaviy ahamiyati juda katta, bu kishini bashariyat haqidagi g‘oyalar bilagt ulg‘aytiradigan maktabdir.

M. Ye. SALTIKOV-ShChEDRIN

16-bet

Vatan g‘oyasi hamma uchun bir xil manfaatlidir. U halol kishilarda jasorat haqida fggkr uyg‘otadi, nopok kishilarni esa, agar vatan g‘oyasi bo‘lmaganda qplishlari aniq bo‘lgan ko‘pgina qabihliklardan saqlaydi.

M. Ye. SALTIKOV-ShChEDRIN

Vatan g‘oyasi shonli yillarda ham, kundalik hayotda ham uning farzandlariga birdek xos bo‘lmog‘i zarur, binobarin, bu g‘oyani chinakam his etgandagina kishi o‘zini grajdan deya hisoblashga haqlidir.

M. Ye. SALTIKOV-ShChEDRIN

Vatanparvarlik tantanavor xitoblar va umumiy gaplardan iborat emas, balki u vatanga qizgin muhabbat hissi bilan ortiqcha dabdabalarsiz o‘z fikrini bildirish, faqat ezgulikda hayratlanmay, balki muqarrar har qaerda, har qanday vatanda ham bo‘ladigan yovuzlikni jinidan battar yomon ko‘rish demakdir.

V. G. BELINSKIY

Kim bo‘lishdan qat’iy nazar, uning vatanparvarligi so‘zi bilan emas, ishi bilan isbot qilinadi.

V. G. BELINSKIY

Vatan oldidagi burch inson uchun muqaddasdir.
V. A. SUXOMLINSKIY

Vatanga nafi yo‘q yashalgan har kun, inson hayotida qolur bemazmun.
M. SALMON

Vatan uchun chala ish qilish, uning uchun hech nima qilmaslikdir.
M. ROBESPVER

Olimaqom vatanparvarlik — vatan farovonligi yo‘lida benihoya jonbozlikdir.
N. G. ChERNIShEVSKIY

Vatanga muhabbat mavhum tushuncha bo‘lmay, tashkilotchilikni, taraqqiyot va madaniyatni talab qiladigan real ruhiy qudratdir.
A. N. TOLSTOY

Sof vijdonli kishida vatanparvarlik o‘z vatatti foydasiga mehnat qilish inttiyoqidan bosh-qanarsa bo‘lmasligi kerak va bu boshqa biron narsadan emas, balki iloji boricha ko‘p va xo‘b ezgu ishlar qilish istagidan kelib chiqadi.
N. A. DOBROLYuBOV

Vatanga muhabbat, avvalo, unga samimiyat, qizg‘inlik bilan, samarali istak bilan ezgulik va ma’rifat tilashdan iboratdir, uning mehrobiga hamma narsani, shirin jonni ham fido etish, undagi barcha yaxshi narsalarga qizgin hamdardlik bildirish hamda uning kamolot yo‘liga g‘ov tushayotgan narsalarga qahriltg bo‘lmoqlikdir.
N. A. NEKRASOV

Vatanparvar — vatanga xizmat qilayotgan kishidir, vatan esa bu avvalambor xalqdir.
N. G. ChERNIShEVSKIY

Vatanparvarlik — nomusli va nazokatli tuyg‘udir... Muqaddas so‘zlarni ehtiyot qil, vatanga muhabbat xususida duch kelgan joyda og‘iz ko‘pirtirma. Yaxshisi — uning farovonligi va qudrati yo‘lida indamaygina mehnat qil.
V. A. SUXOMLINSKIY

Yaqin-yaqinlarda ham vatanparvarlik vatandagi barcha yaxshi narsalarni madh etishdan iborat edi; vatanparvar bo‘lmoq uchun endi bu narsalar kifoya qilmaydi. Chunonchi, barcha yaxshi narsalarni madh etishga hali bizda mavjud bo‘lgan bema’niliklarni ayovsiz fosh qilish va ta’qib etish ham qo‘shilgan.
Ya. A. DOBROLYuBOV

Xalq farovonligi yo‘lida har turli usullarni axtarmoq va iloji boricha vatanga zarar yetkazadigan illatlarga barham bermoq kerak.
I. A. KRILOV

Vatanparvarlik bizni mahliyo qilib qo‘ymasligi kerak; vatanga muhabbat ko‘r-ko‘rona ehtiros emas, balki dono aql faoliyatidir.
M. KARAMZIN

Har kimning hayoti vatanga tegishlidir, binobarin, abjirlik emas, balki rasmana dovtoraklik unga foyda keltiradi.
NAXIMOV

Eng yoqimli va dolzarb ishlar ham vatanga xavf soluvchi xatar oldida nari surib qo‘yiladi.
L. M. LEONOV

Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrabolar qimmatlidirlar; lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» otli so‘zda mujassamlashgandir. Vatanga nafi tekkudek bo‘lsa, —axir qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanar ekan?
SITSERON

Ma’rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati vatan yo‘lida qurbon bo‘lishga hozir ekanliklarida aks etadi.
G. GEGEL

Eng maqbul fazilat — vatanga va odamzodga ko‘rsatilgan xizmatda.
J. DELIL

Agar hayot go‘zalligi haqida so‘z boradigan bo‘lsa, vatan uchun kurashda
fidokorlik ko‘rsata bilish go‘zal hayotnig eng yuksak namunasidir.

M. I. KALININ

Vatandan tashqarida baxt yo‘q, har kim jonajon yerida ildiz otsin.

I. S. TURGENEV

Begona yurt vatan bo‘la olmaydi.

I. GYO‘TE

Vatan tarkin bir nafas aylama,
Yana ranji g‘urbat havas aylama.

A. NAVOIY

Elga qo‘shulg‘on esh topti.

A. NAVOIY

O‘zingni vatanga qanchalar yaqin his etsang, uni shu qadar jonli vujud kabi
aniqroq va sevibroq tasavvur qilasan.

BLOK

Har kimning qalbida o‘z xalqining jajji qiyofasi yashaydi.

FREYTAG

Harqalay, eng muhimi vatanga muhabbating, muhabbating va yana
muhabbatingdir! Binobarin, shu muhabbat senga kuch-quvvat beradi qolgan
hammasini ham osongina hal qilasan.

M. Ye. SALTIKOV-ShChEDRIN

Vatan sog‘inchi hammaga bir xilda ta’sir qiladi: u o‘tmish manzaralarini
ideallashtirilgan holda jilolantiradi, uning fazilatlari oshaveradi, kamchiliklari
esa vaqt va masofa taqozosi bilan xiralashib boraveradi, oxiri tasavvurimizdan
butkul o‘chib yo‘qoladi.

J. SAND

Faqat hamiyatsiz odamlargina vatan tuygʻusining goʻzal va yuksakligini his etolmaydilar.

I. P. PAVLOV

Kim oʻz yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

J. BAYRON

Kimda oʻz yurtiga boʻlmasa mehr.

U qalban shikasta u qalban majruh.

T. ShEVChENKO

Kim oʻz vataniga daxldor boʻlmasa, u insoniyatga ham daxldor emas.

V. G. BELINSKIY

Oʻz yurtidan yuz oʻgiranlar oʻz vijdonlaridagg ham yuz oʻgiradilar.

Ya. GALAN

Kim vatanni xor qilsa — u oilasidan ham ayriladi.

KORNEL

20-bet

Oʻz vataniga dogʻ tushirish — uni sotttsh degan soʻz.

V. GYUGO

Shunday jinoyat borki, uni oqlab boʻlmaydi,— bu vatanga xiyonatdir.

BUAST

Vatanga xiyonat qilmoq uchun qalban gʻoyatda tuban boʻlmoq kerak.

N. G. ChERNIShEVSKIY

Sotqinni hech kimga va hech narsaga solishtirib boʻlmaydi. Menimcha, hatto terlama biti ham sotqinga qiyoslansa, haqoratlangan boʻlur edi.

M. GORKIY

Hayvonlar toʻdasi deb hisoblanishi mumkin boʻlgan xalq tarixda yoʻq va xuddi shuningdek, alohida eʼtiborga sazovor guruhlardan iborat xalq ham boʻlishi mumkin emas.

A. I. GERSEN

Dunyodagi barcha xalqlar har jihatdan ham teppa-teng: biri ikkinchisidan ortiq emas.

G. LESSING

Haqiqiy sof vijdonli kishi o‘zidan — oilani, oiladan — vatanni, vatandan — insoniyatni ustun qo‘ymog‘i kerak.

J. DALAMBER

Insonning oyog‘i o‘z yurti zaminiga tomir otishi kerak, lekin uning nigohi butun dunyoni kuzatsin.

J. SANTAYANA

Vatanga muhabbat butun dunyoga muhabbat bilan uyg‘unlashib ketadi. Bilim nuridan bahramand bo‘lgai xalq, bu bilan yonberidagi qo‘shnilariga ziyon keltirmaydi. Aksincha, davlatlar qanchalik ma‘rifatli bo‘lishsa, bir-birlari bilan til topishib, yanada qudratliroq kuchga aylanadilar, olamshumul tafakkur yanada ravnaq topadi.

K. GELVESIN

Vatanga bo‘lgan muhabbatim meni xorijiy yutug‘idan ko‘z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo‘lsa, vatanimni jahondagi g‘aznalar bilan yana-da shunchalik boyitgim keladi.

F. VOLTERO‘zlikdan kechmang, lekin o‘zgalardan ham arzirli narsalarni o‘rganishga odatlaning.

T. G. ShEVChENKO

Ona Vatanni tarannum etuvchi she‘rlar

Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!

Aziz xalqim kutgan go‘zal zamon keldi,

Diyorimga yangi bahor, bo‘ston keldi,

Qalbimizga ziyo – ilmu irfon keldi,

Shukrimiz bor, ushalgan bu armon uchun,

Yangi hayot uchun,

Yangi O‘zbekiston uchun!

Buxoriylar, Termiziylar ilmi yoddir,

Temuriylar, Nasafiylar ruhi shoddir,

Azizlarning yotgan joyi ham oboddir,
Bobolardan meros qutlug‘ makon uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O‘zbekiston uchun!
O‘zbek nomi bordir qutlug‘ xabarlarda,
Ona tilim yangrar oliy minbarlarda,
Hilpiraydi bayroq mudom zafarlarda,
Dillar osmon yaralgan keng imkon uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O‘zbekiston uchun!
Baland-baland uylar yurtning dil bayoni,
Yangi qo‘shiq bu – adiblar xiyoboni,
Yorug‘ umid, maqsadlarning yo‘q poyoni,
Inson qadri, inson baxti, inson uchun,

Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!
Saodatga yetdik, shukur, bardosh bilan,
G‘amlar ketar sodiq hamroh, darddosh bilan,
Bugun xalqim inoq do‘stu qardosh bilan,
Oq manzillar, yangi davru davron uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O‘zbekiston uchun!

Ta'lim, ta'lim, ta'lim degan xitob bilan,
O'zbekiston yuksalmoqda shitob bilan,
Iymoningga quvvat indir kitob bilan,
Shiddat bilan yo'lga chiqqan karvon uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O'zbekiston uchun!

Boshi ko'kka tegib turgan tog'im, Vatan.
Tinchlik bilan baxtdan masrur chog'im, Vatan,
Shavkatinga ko'z tegmasin, bog'im, Vatan,
Xalqim deya yashayotgan sarbon uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O'zbekiston uchun!

G'ayrat MAJID

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Yangi O`zbekiston.-Toshkent : “O`zbekiston” nashriyoti, 2021.-
393 bet.

2. Shavkat Mirziyoev

Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalkimiz bilan birga kuramiz.-
Toshkent : «O`zbekiston»NMIU,2017.-488 b.

3. Islom Karimov

Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.- Toshkent : “O`zbekiston” nashriyoti,
1995.- 278 bet.

Mundarija:

1. Muqaddima.....	3
2.Ommaviy tadbirlar mavzulari.....	6
3.“Gulla, yashna hur O‘zbekiston” mavzusidagi senariysi.....	12
4. Vatan va vatanparvarlik haqida.....	17
5.Ona Vatanni tarannum etuvchi she`rlar.....	23
6.Foydalanilgan adabiyotlar.....	26

QAYDLAR UCHUN

[illegible]

XORAZM VILOYATI URGANCH TUMANI
AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

**JADIDLAR - MILLIY O‘ZLIK, ISTIQLOL VA DAVLATCHILIK
G‘OYALARI**

Tavallo, G‘ulom Zafariy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev
Usmon Xo‘ja, Ashurali Zohiriy, Abduqodir Shakuriy
Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy

Tuzuvchilar: D.Jumaniyazova, D.Olloquliyev.
Muharrir: D.Jumaniyozova.
Dizayner: D.Olloquliyev

Nashr uchun ma’sul:

Jumaniyozova.D - Axborot-bibliografiya xizmati. Xizmat rahbari.

Adadi 10 nusxa / Ko‘chirma nusxa